

**SAMARQAND VILOYATIDA BOLALAR MAKTABGACHA TA'LIM
MUASSASALARIDA PARAZITAR KASALLIKLAR BILAN
KASALLANISHNI KAMAYTIRISH BO'YICHA SANITARIYA-
GIGIYENIK TADBIRLARNI TASHKILLASHTIRISH**

Maxmudova Lola Baxromovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti "
Epidemiologiya" kafedrasida dotsenti
Muzrobov Alisher Boliqul o'g'li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti "Epidemiologiya"
kafedrasida magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyatidagi maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar orasida parazitlar kasalliklarining tarqalish sabablari, ularning sog'liq uchun xavfi va kasallanishni kamaytirish yo'nalishida amalga oshiriladigan sanitariya-gigiyenik tadbirlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Parazitlar kasalliklar, maktabgacha ta'lim, gigiyena, profilaktika, bolalar salomatligi, sanitariya tadbirlari.

**ОРГАНИЗАЦИЯ САНИТАРНО-ГИГИЕНИЧЕСКИХ
МЕРОПРИЯТИЙ ПО СНИЖЕНИЮ ЗАРАЖЕННОСТИ
ПАЗИТАРНЫМИ БОЛЕЗНЯМИ В ДОШКОЛЬНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ САМАРКАНДСКОЙ
ОБЛАСТИ**

Махмудову Лолу Бахромовну
Самаркандский государственный медицинский университет "
доцент кафедры "Эпидемиология"
Музрабову Алишеру Боликул угли
Самаркандский государственный медицинский университет
"Эпидемиология" магистр кафедры

Аннотация: В данной статье освещаются причины распространения паразитарных заболеваний среди детей в дошкольных образовательных

учреждениях Самаркандской области, их риски для здоровья и санитарно-гигиенические мероприятия, проводимые для снижения заболеваемости.

Ключевые слова: Паразитарные болезни, дошкольное образование, гигиена, профилактика, здоровье детей, санитарные мероприятия.

ORGANIZING SANITARY AND HYGIENIC EVENTS TO REDUCE INFECTION WITH PARASITIC DISEASES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN SAMARKAND REGION

Makhmudova Lola Bakhromovna

Samarkand State Medical University "

Associate Professor of the Department of "Epidemiology"

Muzrobov Alisher Bolikul ugli

Samarkand State Medical University "Epidemiology"

Master of the Department

Abstract: This article highlights the causes of the spread of parasitic diseases among children in preschool educational institutions of the Samarkand region, their health risks, and sanitary and hygienic measures to reduce morbidity.

Keywords: Parasitic diseases, preschool education, hygiene, prevention, children's health, sanitary measures.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2025 yildagi PF-88-son farmoniga asosan Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Sog‘liqni saqlash tizimini eng ilg‘or xorijiy tajriba asosida isloh qilish, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish, sohaga yangi boshqaruv tamoyillarini joriy qilish maqsadida qaror qilaman: Ilg‘or xorijiy tajriba asosida aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishning yangi tizimini joriy etishning asosiy maqsadlari etib quyidagilar belgilansin: xalqaro tajribaga asoslangan aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishning yangi modelini joriy qilish; birlamchi tibbiy-sanitariya

yordami muassasalari, xususan, tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari, oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar, mahalla tibbiyot punktlari faoliyatini yagona yondashuv asosida tashkil qilish orqali aholiga tibbiyotni yanada yaqinlashtirish; aholiga tibbiy yordam ko'rsatishda oilaviy shifokor ulushini 70 foizga yetkazish; sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish hamda tibbiyotda qog'ozbozlikni kamaytirish orqali tibbiyot xodimlari ish yuklamasini 30 foizgacha kamaytirish; aholining birlamchi tibbiy-sanitariya yordamidan roziligi darajasini 85 foizdan oshirish.

Bola salomatligini mustahkamlash va ularni turli yuqumli kasalliklardan himoya qilish mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar organizmi tashqi muhit ta'siriga nisbatan sezuvchan bo'lib, gigiyena qoidalariga rioya qilinmaganda parazitar kasalliklar tez tarqaladi. Samarqand viloyati aholisi orasida, xususan, maktabgacha ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bolalarda **gelmintozlar (askaridoz, enterobioz, giardioz)** kabi parazitar kasalliklar tez-tez uchrab turadi. Buning sabablari sifatida bolalarning shaxsiy gigiyena qoidalarini bilmasligi, qo'l yuvish odatining yetarli shakllanmaganligi, suv va oziq-ovqat mahsulotlarining ifloslanishi, shuningdek, ba'zi muassasalarda sanitariya nazoratining sustligi ko'rsatiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida parazitar kasalliklarning tarqalishi nafaqat bolalarning jismoniy holatiga, balki ularning aqliy va hissiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu muassasalarda gigiyenik tartiblarni qat'iy yo'lga qo'yish, sog'lom ovqatlanish, toza suv bilan ta'minlash va o'quv-tarbiyaviy ishlar orqali bolalarga tozalik madaniyatini singdirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Samarqand viloyatining turli tumanlarida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, parazitar kasalliklarning oldini olishda faqat tibbiyot xodimlarining faoliyati emas, balki pedagoglar va ota-onalarning ham o'zaro hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan, sog'lom bola — sog'lom jamiyat tamoyilidan kelib

chiqib, parazitlar kasalliklarining oldini olish bo'yicha kompleks sanitariya-gigiyenik tadbirlarni samarali tashkillashtirish zarurdir.

Samarqand viloyatidagi maktabgacha ta'lim muassasalarida parazitlar kasalliklarining kamaytirilishi — bolalar salomatligini mustahkamlash, sog'lom avlodni shakllantirish va ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu kasalliklarining oldini olishda muntazam sanitariya nazoratini o'tkazish, bolalar va xodimlar o'rtasida gigiyenik bilimlarni oshirish, shuningdek, ota-onalarning gigiyenik madaniyatini yuksaltirish alohida o'rin tutadi. Shuningdek, har bir maktabgacha ta'lim muassasasida tibbiy kuzatuv va profilaktik tekshiruvlarni muntazam yo'lga qo'yish, ichimlik suvi va ovqat mahsulotlarining gigiyenik sifatini doimiy nazoratda saqlash zarur. Bolalar orasida tozalik madaniyatini shakllantirish, o'yinchoqlar va o'quv jihozlarini dezinfeksiya qilish ishlarini jadallashtirish orqali parazitlar kasalliklarining tarqalish darajasini sezilarli kamaytirish mumkin.

Umuman olganda, Samarqand viloyatida bolalar o'rtasida parazitlar kasalliklarining kamaytirilishi sog'lom avlodni tarbiyalash, bolalar hayot sifatini yaxshilash hamda jamiyatning umumiy sanitariya-madaniy darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.05.2025 yildagi PF-88-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7534275>
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. "Sanitariya-gigiyenik me'yorlar va talablar to'plami", Toshkent, 2022.
3. Raximov A., G'aniyeva M. "Bolalar gigiyenasi va parazitlar kasalliklarining profilaktikasi". — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
4. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). "Helminth infections and prevention guidelines", Geneva, 2020.

5. Samarqand viloyati sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik markazi ma'lumotlari, 2024-yil hisobotlari.

6. Ismoilova Z. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish omillari". — "Sog'lom avlod" jurnali, №3, 2023.